

**O'ZBEKISTONDA SOLIQ SOLISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH HAMDA SODDALASHTIRILGAN TIZIMNI
JORIY ETISHNING AHAMIYATI**

Qurbanboyeva Odina Sayfiddin qizi

Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

tel:90 400-18-08;

E-mail:qurbanboyevao@gmail.com

Ushbu tezisda soliqlar davlat iqtisodiyotini va soliq to'lovchilar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda muhim rol o'ynaydi, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning alohida shakli sifatida namoyon bo'ladi. Samarali soliq tizimi budjet va maqsadli jamg'armalarga tushumlarning o'z vaqtida va to'liq tushishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, davlat moliyasining ishonchli ishlashini ta'minlash imkonini beradi. Mamlakat soliq tizimining tuzilishi uning iqtisodiy ko'rsatkichlarining belgilovchi omili hisoblanadi. Yaxshi tuzilgan soliq tizimi soliq to'lovchilar tomonidan rioya qilinishi oson va davlatning ustuvor vazifalari uchun etarli daromadlarni jalb qilgan holda iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishi mumkin. Aksincha, yomon tuzilgan soliq tizimi qimmatga tushishi, iqtisodiy qarorlar qabul qilishni buzishi va iqtisodiyotga zarar etkazishi mumkin.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda soliq tizimining mavjud muammolari bilan bir qatorda soliq qonunchiligining beqarorligi, fiskal funksiyani afzal ko'rish, soliq yukining notekisligi, soliq imtiyozlarining samarasizligi kabi bir qator boshqa muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolar soliq to'lovchilarning iqtisodiy va ishbilar-monlik faolligini sezilarli darajada pasaytiradi va mamlakat soliq tizimining samaradorligini murakkablashtiradi hamda unga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Soliq tizimi samaradorligining muhim ko'rsatkichi mamlakat iqtisodiyotiga tushadigan soliq yukidir. Uning maqbul darajasi iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishiga ko'maklashadi, bo'shagan mablag'larni mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va investisiya jarayonlarini rag'batlantirishga

yoʻnaltirish imkonini beradi¹.

Soliq deganda ushbu Kodeksda belgilangan, Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budgetiga yoki davlat maqsadli jamgʻarmasiga (bundan buyon matnda budget tizimi deb yuritiladi) toʻlanadigan majburiy begʻaraz toʻlov tushuniladi².

Respublikamizda soliq solish mexanizmi hamda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish hamda bevosita raqamli texnologiyalarning takomillashtirilishi borasida tizimli ishlar tashkil qilinib borilmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining oʻsishi, budget tushumlarining taʼminlanishi bevosita soliq soliq mexanizmining tashkil etilishi bilan bogʻliqdir. Mamlakatimizda soliq siyosatining asosiy maqsadi soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish va ragʻbatlantiruvchi choralarni kengaytirish, jumladan, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida faoliyat olib borayotgan soliq toʻlovchilarga soliq turlari boʻyicha tegishli imtiyoz va preferensiyalar berish, soliq tizimiga innovatsion texnologiyalarni qoʻllash orqali tizimni modernizatsiya qilish hamda soliq yukini sezilarli darajada kamaytirishdan iboratdi.

Tadbirkorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda soliq muhitini yaxshilash borasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyunda “Oʻzbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi toʻgʻrisida”gi PF-5468-sonli Farmoni asosiy poydevor vazifasini bajardi.

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, oʻrganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy oʻsishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sogʻlom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar yigʻiluvchanligining zarur darajasini taʼminlashga toʻsqinlik qilayotgan bir qator

¹ <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2924/3061>.

² Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri).

www.tadqiqotlar.uz

tizimli muammolarni ko'rsatdi³.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga soliq yukining kamaytirilishi natijasida ularning faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratilishi zarurligi belgilangan.

Buning natijasida, 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish⁴ maqsad qilib qo'yilgan.

O'zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- Iqtisodiyotda soliq yuki darajasini kamaytirish, soddalashtirilgan hamda umumbelgilangan tartibda soliq to'laydigan soliq to'lovchilarning soliq darajasidagi tafovutning bartaraf etilishi;
- Soliqlarni unifikatsiya qilish, o'xshash soliq solish bazasiga eg soliqlarni birlashtirish, zamonaviy texnologiyadan samarali foydalangan holda, soliq hisobotlarini qisqartirish hamda soddalashtirish vositasida operatsion harajatlarni qisqartirishga erishish;
- Soliq kodeksida belgilangan normalarning amal qilishini ta'minlash, soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini qilish;
- Xorijiy investitsiya muhitiga qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning faoliyatini har tomonlama qo'llab quvvatlash;

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyunda "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

- Soliq tekshiruvlarini qisqartirish, soliq tekshiruvlarini optimallashtirish hamda takomillashtirish orqali, soliq to'lovchining faoliyatiga asossiz aralashuvning oldini olish.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida 2019-yil 1-yanvardan boshlab:

a) birinchidan, mehnatga haq to'lash fondiga soliq yuki quyidagilar orqali kamaytiriladi:

barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yagona stavkasini 12 foiz miqdorida joriy etish, shundan 0,1 foizini shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo'naltirish. Bunda, ayrim toifadagi fuqarolarning mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 1,41 baravari miqdoridagi daromadlarini soliq solishdan ozod qilishning amaldagi tartibi saqlab qolinadi;

pensiya tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida budjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar, ustav jamg'armasi (kapitali)ning 50 foizi va undan ko'proq miqdori davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to'lovni 25 foiz miqdorida belgilash, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar uchun ushbu to'lov stavkasini 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirish;

b) ikkinchidan, oborot (tushum)dan soliqlarni optimallashtirgan holda umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqlar to'lovchilarni soliqqa tortish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tish mezonlari quyidagilar orqali takomillashtiriladi:

davlat maqsadli jamg'armalariga yuridik shaxslarning oboroti (tushumi)dan undiriladigan majburiy ajratmalarni bekor qilish;

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun 22 foizdan 20 foizgacha pasaytirish, shuningdek, mobil aloqa xizmati ko'rsatayotgan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) uchun rentabellik darajasidan kelib chiqib ular uchun qo'shimcha foyda solig'i hisoblash tartibini bekor qilgan holda 14 foizdan 20 foizgacha oshirish;

dividendlar va foizlar ko‘rinishidagi daromadlar bo‘yicha to‘lov manbaidan ushlab qolinadigan foyda solig‘i stavkasini 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirish;

barcha tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan oboroti (tushumi) 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etish;

qo‘shimcha foyda solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibini, shu jumladan royalti to‘lashni joriy etish orqali takomillashtirish³.

Soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari yuridik va jismoniy shaxslar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishga, soliqqa tortish tizimini soddalashtirishga, soliq yukini pasaytirishga, soliqqa tortiladigan ob’ektlarni maqbul darajada kamaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Hozirgi kunda amalda bo‘lgan asosiy soliq stavkalari mamlakatimizda tadbirkorlikka keng shart-sharoit hamda imkoniyatlar yaratilishi uchun xizmat qilmoqda. Jumladan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining bazoviy stavkasi 15 foiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkasi 12 foiz, ijtimoiy soliq 12 foiz, aylanmadan olinadigan soliqning bazaviy stavkasi 4 foiz, qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 12 foizni tashkil etadi.

Soliq amaliyotida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning soliq yukini maqbullashtirish masalasi quyidagilarda namoyon bo‘lishi bilan e‘tiborlidir.

Birinchidan, korxonalar zimmasidagi soliq yukini maqbullashtirish ularning o‘z vaqtida va so‘zsiz to‘lanishi, qonunchilikka aniq rioya qilinishi bilan belgilanadi. Bunda buxgalteriya va boshqa hisobotlar shakli aniq hamda to‘g‘ri yuritiladi, qonunchilikka qattik rioya qilinadi.

Ikkinchidan, soliq yukini optimallashtirishning yana bir shakli bu soliq to‘lovchi kamroq soliq to‘lash maqsadida amaldagi qonunchilik imtiyozlardan va boshqa preferentsiyalardan foydalangan holda soliq majburiyatlarini maqbullashtirishga erishishi mumkin⁵.

Korxonalarning soliq yuki darajasini kamaytirib borish, ularga nisbatan

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyunda “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni.

⁵ <https://cyberleninka.ru/article/n/soliq-yukining-biznes-uchun-ahamiyati>.

optimal darajadagi soliq yukini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq to'lovchilarning soliq yukini kamaytirish uchun, eng avvalo, ishlab chiqarishni, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga, aholining real daromadlari va iste'mol talablarini hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirishga qaratilgan.

Soliq yukining kamaytirilishi ishlab chiqarish sur'atining oshishiga, rivojlanishi va kengayishiga, natijada yashirin iqtisodiyotning qisqarishi, soliq obektlarining hamda shu bilan bir vaqtda, soliq bazasining kengaytirilishiga xizmat qiladi. Soliq bazasining kengaytirilishi-budjetga tushumning bevosita ta'minlanishi va davlatning iqtisodiy barqarorlik darajasining oshishiga o'z hissasini qo'shadi.

Bundan tashqari, soliq turlarining unifikatsiya qilinishi, bir xil soliq turlarining birlashtirilishi natijasida soliq mexanizmining soddalashtirilishiga, soliqqa tortishning oshkora hamda adolatli tashkil etilishiga, soliqqa tortish tizimining takomillashtirilishiga, shu bilan bir qatorda, soliq to'lovchilar tomonidan majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilishning qonuniyligini ta'minlashga imkoniyat yaratib beradi.

Hozirgi kunda mavjud muammolarni bartaraf qilishning asosiy yo'llari sifatida soliq ma'murchiligining muntazam takomillashtirib borilishi, soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish orqali soliq bazasini kengaytirish, yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali kurashish, aksiz solig'i stavkalarini bosqichma-bosqich indeksatsiya qilish, daromadlarni deklaratsiyalash tizimini keng amaliyotga joriy qilish, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini undirish tartibini tubdan isloh qilish muhim omil sifatida qaralmoqda.

Soliqlar budjet daromadlarining asosiy qismini tashkil qilib, iqtisodiyotning barcha sohalarini tartibga solishda hamda Davlat budjetining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarida turmush darajasini oshirish, jamiyatda tadbirkorlik muhitini yaratish, ularning qonun bilan belgilangan huquqlarini himoya qilinishini kafolatlaydi.

Shunday ekan, butun jahon amaliyotida soliqlar davlat budjetining asosiy

tayanchi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi, davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR

1. <https://yashil-iqtisodiyot taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view>.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyunda "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/soliq-yukining-biznes-uchun-ahamiyati>.
6. A.V.Vahobov, A.S.Jo'rayev. (2009). Soliqlar va soliqqa tortish. "Sharq" nashriyoti.